


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 550,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,3 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | Mird. so‘m | | <i>O’sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i> |
|--|-----------------|-----------------|--|
| | 2023- yil | 2024- yil | |
| I. YAHM, jami | 12 854,1 | 15 550,7 | 106,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati | 12 494,0 | 15 226,7 | 106,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 360,1 | 324,0 | 107,1 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo‘silgan qiymati | 12 494,0 | 15 226,7 | 106,2 |
| qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 901,1 | 3 316,2 | 103,4 |
| sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda) | 3 018,8 | 3 566,0 | 107,0 |
| sanoat | 2 289,2 | 2 753,2 | 106,3 |
| qurilish | 729,6 | 812,8 | 109,3 |
| xizmatlar | 6 574,1 | 8 344,5 | 107,1 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 108,6 | 1 341,5 | 110,7 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 066,5 | 1 371,6 | 113,6 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 4 399,0 | 5 631,4 | 104,7 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 686,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,0 % ga yuqoridir.

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

| | 2023- yil | 2024- yil |
|---|--------------|--------------|
| I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | |
| tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 97,2 | 97,9 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,8 | 2,1 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 23,2 | 21,8 |
| sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 24,1 | 23,4 |
| sanoat | 18,3 | 18,1 |
| qurilish | 5,8 | 5,3 |
| xizmatlar | 52,7 | 54,8 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 8,9 | 8,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 8,5 | 9,0 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 35,3 | 37,0 |



2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 21,8 % ni, sanoat tarmog'i 18,1 % ni, qurilish 5,3 % ni va xizmatlar sohasi 54,8 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2023- yil



23,2 % Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2,8 %

18,3 % Sanoat

5,8 % Qurilish

52,7 % Xizmatlar

2024- yil

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

21,8 %

2,1 %

Sanoat

18,1 %

Qurilish

5,3 %

Xizmatlar

54,8 %



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2023- yilda – 1,4 f.p.) ijobiy (salbiy) hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



6,3 %

Sanoat



0,8 %

1,1 %

Xizmatlar



3,6 %

0,6 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish



Mahsulotlarga sof soliqlar




2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,8 %), sanoatda – 106,3 % (18,1 %), qurilishda – 109,3 % (5,3 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (54,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,7 % (8,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,6 % (9,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,7 % dan (37,0 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan % da)**

2023- y.

2024- y.



2,9 %

YAHM

6,3 %



2,7 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,4 %



3,3 %

Sanoat

6,3 %



2,1 %

Qurilish

9,3 %



2,9 %

Xizmatlar

7,1 %




2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 118,5 % va sanoatda – 113,1 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)

2023- y.

2024- y.



2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 10 385,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 8 416,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 68,2 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 67,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʼliq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2023- yil

8 416,5

67,4 %

2024- yil

10 385,7

68,2 %

